

DEHQON XO'JALIKLARINI BARQAROR FAOLIYAT YURITISHIGA TO'SQINLIK QILAYOTGAN MUAMMOLAR VA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Ahmatov B A

BDTU Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastri kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada dehqon xo'jaligining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan maydon o'lchamidagi cheklovlar, almashlab ekish tizimini joriy etish imkoniyati yo'qligi, qishloq xo'jalik texnikasining yetishmasligi kabi muammolar va ularni yechish yo'llari bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *dehqon xo'jaligi, cheklovlar, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, moddiy resurslar, mablag'lar, barqaror faoliyat omillari.*

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы, препятствующие эффективной деятельности дехканского хозяйства, такие как ограничения по площади, невозможность внедрения системы севооборота, нехватка сельскохозяйственной техники, а также пути их решения.*

Ключевые слова: *дехканское хозяйство, ограничения, сельское хозяйство, водоснабжение, материальные ресурсы, средства, факторы устойчивой деятельности.*

Abstract: *The article examines the problems hindering the effective operation of a peasant farm, such as limited area, the impossibility of implementing a rotation system, the shortage of agricultural machinery, as well as ways to solve them.*

Key words: *peasantry, restrictions, agriculture, water supply, material resources, funds, factors of sustainable activity.*

KIRISH

Dunyo tajribasidan ma'lumki, bugungi kunda dehqon xo'jaliklari o'z oilasini oziq-ovqat bilan ta'minlashdan tashqari, ortiqcha mahsulotlarni ham ichki, ham tashqi bozorga chiqarmoqda. Ular bir vaqtning o'zida qishloq joylarida yuqori darajadagi bandlikni ta'minlab, arzon ish o'rinlarini yaratmoqda. Biroq, dehqon xo'jaliklarining bu afzalliklaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Bu holat bir qator tashkiliy-huquqiy masalalarning hal etilmaganligi bilan bog'liq.

Muxokama. Shunday qilib, dehqon xo'jaliklarini yanada rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri yer maydonlarining cheklanganligi hisoblanadi. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" qonun³⁰ dehqon xo'jaligining yer maydoni o'lchami o'z yer maydonlarini kengaytirish va yerlarni subijara asosida foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, dehqon xo'jaliklari yollanma mehnatdan yil davomida foydalanish huquqiga ega emas. Bunday cheklovlar, bir tomondan, dehqon

³⁰ O'zbekiston Respublikasi qonuni "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" 8-modda

xo'jaliklarining daromadlilikini pasaytirsam, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish imkonini bermaydi.

Holbuki, qishloq aholisining yarmidan ko'prog'i uchun aynan tomorqalardan olinadigan daromadlar oila daromadining asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi. Buni inobatga olgan holda, ushbu cheklovlarni bekor qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari, yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida bir qator fermer xo'jaliklarida yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligi pasaygan. Shu sababli, bizning fikrimizcha, fermer xo'jaliklarining na faqat xosildan bo'shagan yerlarini balki foydanilmayotgan yerlarini dehqon xo'jaliklariga subijara asosida berish maqsadga muvofiq.

Bu dehqon xo'jaliklarini davlat buyurtmasi orqali strategik ekinlar (paxta xom ashyosi va bug'doy) yetishtirishga shartnoma asosida jalb qilish imkonini beradi. Dehqon xo'jaliklarida hosildorlik va yer unumdorligi yuqori ekanligini inobatga olsak, fermerlar past hosil olayotgan yerlarning samaradorligi qay darajada oshishini taxmin qilish mumkin.

Shuningdek, dehqon xo'jaliklari bug'doy o'rim-yig'imidan so'ng yerlarining bir qismidan takroriy ekinlar (sabzavot, kartoshka, dukkakli ekinlar va boshqalar) yetishtirish uchun foydalanishlari lozim. Bu ichki bozorni oziq-ovqat bilan ta'minlashda va qishloqda bandlik darajasini oshirishda qo'shimcha yordam beradi. Ikkinchi muhim masala - dehqon xo'jaliklarini sug'orish suvi bilan muntazam ta'minlashdir. Ma'lumki, hozirgi kunda dehqon xo'jaliklari qoldiq tamoyili asosida sug'orish suvi bilan ta'minlanmoqda. Dehqon xo'jaliklarini sug'orish suvi bilan ta'minlash bo'yicha aniq davlat dasturi xam mavjud emas.

Shuning uchun dehqon xo'jaliklari ko'pincha kafolatlangan suv ta'minotiga umid qila olmaydilar. Dehqon xo'jaliklarida sug'orish texnologiyasini takomillashtirish masalalari bilan deyarli hech kim shug'ullanmaydi. Shu bilan birga, yer maydonlari o'lehamlarining kichikligini hisobga olgan holda, aynan sug'orish texnologiyasini takomillashtirish (tomchilatib, yomg'irnatib sug'orish) sug'orish suvidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tabiiyki, ko'plab dehqon xo'jaliklarida zamonaviy sug'orish texnologiyasini joriy etish uchun boshlang'ich kapital mavjud emas. Shuni inobatga olgan holda, dehqon xo'jaliklari dalalarining suv ta'minotini yaxshilash va zamonaviy sug'orish texnologiyasini joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish, past foiz stavkalarida uzoq muddatli kreditlar ajratish lozim.

Bu jarayonga tijorat banklari va boshqa moliyaviy manbalarni kengroq jalb etish uchun ularga imtiyozli shart-sharoitlar va rag'batlantirish choralarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni (soliqlardan vaqtincha ozod qilish yoki soliq stavkasini pasaytirish kabi) ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari.

Ushbu muammolarni hal etish, bir tomondan, dehqon xo'jaliklarini sug'orish suvi bilan ta'minlashni kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish hajmini oshirishni barqarorlashtirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Dehqon xo'jaliklarini moddiy resurslar (yuqori hosilli o'simlik navlari urug'lari, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar) bilan kafolatli ta'minlash, shuningdek, ularga transport xizmati ko'rsatish, mexanizatsiyalashtirilgan ishlar, mahsulot marketingi va boshqa servis xizmatlarini ko'rsatishni xam tashkil etish kerak.

Dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishdagi navbatdagi muhim masala bu mahsulot marketingi hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining tovarlilik darajasi juda past. Holbuki, dehqonning daromadi bozorda shakllanadi. Ushbu aksiomaga asoslanib, marketing masalasiga dehqon xo'jaliklarining ichki bozorga, ayniqsa, tashqi bozorga chiqishidagi qiyinchiliklardan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiq. Masalaning ikkinchi tomoni - mahsulot sifati (standartlashtirish va sertifikatlash).

Ikkala masalada ham dehqon xo'jaliklarining imkoniyatlari juda past. Birinchi holatda vositachilarning ko'pligi va dehqon xo'jaliklarining ular bilan raqobatlashishdagi qiyinchiliklari, bozor infratuzilmasining yo'qligi yoki rivojlanmaganligi mahsulotni sotishdan tushadigan asosiy foydaning vositachilar qo'lida qolib ketishiga olib keladi.

Ikkinchi holatda esa, dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarishda standartlarni qo'llashga tayyor emasligi. Oxir-oqibatda bu omillar mahsulotning past tovarlilik darajasiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, dehqon xo'jaliklari bu muammolarni bir o'zi hal qilib, raqobatchilarga qarshi tura olmaydi. Shuning uchun dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish, servis xizmati ko'rsatish va hokazolar bo'yicha kooperativlarga birlashishi kerak deb xisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan muammolarni xal qilishda davlatning roli zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan (huquqiy bazani ta'minlashdan) iborat bo'lishi kerak. Dehqon xo'jaliklarini moliyaviy yordamsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun kredit ta'minoti alohida o'rin egallashi lozim. Aksariyat dehqon xo'jaliklari kredit olishda garovga qo'yish uchun yetarli asosiy vositalarga ega emas.

Bundan tashqari, kreditni qaytarish xavfi katta emas. Shuni inobatga olib, ularni turli xildagi kooperativlarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kredit kooperativlarini tashkil etish masalalarini alohida ko'rib chiqish lozim. Bunday kooperativlarni tashkil etish ko'p jihatdan kredit olishni tezlashtiradi, hujjatlarni tayyorlashni osonlashtiradi, shuningdek, kooperativ ichida garov masalalarini hal qiladi.

O'tkazilgan taxlillar shuni ko'rsatadiki, xozirgi vaqtda chorvachilik mahsulotlarining qariyb 90 foizi dehqon (mayda) xo'jaliklari tomonidan ishlab

chiqariladi. Dehqon xo'jaliklari bo'yicha o'tkazilgan so'rov-anketa ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, amalda bir dehqon xo'jaligida chorva mollari soni unchalik yuqori emas (2-3 bosh qoramol, 8-10 bosh qo'y va 20-30 bosh uy parrandalari). Ozuqa yetishtirish uchun yer maydonlarining yetishmasligi, shuningdek, omuxta yem bilan ta'minlashning yo'lga qo'yilmaganligi ushbu xo'jaliklarda chorva mollari mahsuldorligining pastligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yer resurslarining cheklanganligi ozuqa ishlab chiqarish maydonlarini ko'paytirishga imkon bermaydi va yaqin kelajakda vaziyat shundayligicha qolaveradi. Shuni hisobga olib, dehqon xo'jaliklarini ozuqa bilan ta'minlash masalasini alohida ko'rib chiqish zarur. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, dehqon xo'jaliklari bu masalani bir o'zi hal qilishga qodir emas. Bu o'rinda ozuqa (shirali va konsentrat) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kooperativlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Viloyatda hosildorligi past va qisman qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan maydonlar mavjud. Ammo ular aholi zich joylashgan hududlardan uzoqda joylashgan. Bunday yerlarni ozuqa ishlab chiqaruvchi kooperativlarga ajratish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish, ozuqa ishlab chiqarish uchun zarur texnika bilan ta'minlash, bunday kooperativlarni ma'lum muddatga soliq solishdan ozod qilish yoki soliq stavkasini pasaytirish:

birinchidan, hosildorligi past yerlar salohiyatidan foydalanishga;

ikkinchidan, mamlakat chorvachiligini ozuqa bilan ta'minlashni yaxshilashga; uchinchidan, ushbu hududlarda ozuqa ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligini isloh qilish bilan bog'liq oxirgi 10-15 yillarda qishloq joylarda yashovchi aholidagi chorva mollari soni keskin ko'paydi. Shu bilan bir vaqtda, chorva mollari bosh sonining o'sishi ozuqa bazasining o'sishiga mos kelmadi. Shuning uchun so'ngi yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan mahsuldorligi past bo'lgan chorva mollari sonining ko'payishi hisobiga sodir bo'ldi. Shu sababli aholi qo'lidagi uy hayvonlarining mahsuldorligi rivojlangan davlatlardagi chorva mahsuldorligiga nisbatan 3-4 barobar past. Bu kamyob ozuqa resurslarining samaradorligini keskin pasaytiradi, boshqa tomondan, chorva mollari boqish xarajatlarini oshiradi. Shuning uchun dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni yanada rivojlantirishda naslchilikni yaxshilash va mahsuldorlikni oshirish hisobiga chorva mollari sonini kamaytirishga e'tibor qaratish lozim. Buesa o'z navbatida zotdor mollar bilan ta'minlash, kredit ajratish, zooveterinariya xizmatini yaxshilashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan sut mahsulotlarini sotish borasida xam muayyan muammolar mavjud. Hozirgi vaqtda sutni yetishtiriladigan dehqon xo'jaliklarining aksariyat qismi sutni sotishda yordamga muhtoj bo'lgan yirik shaharlardan uzoqda joylashgan. Bu esa o'z

navbatida sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bo'yicha kooperativlar tashkil etishga bo'lgan talabni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish, ularga yuqorida sanab o'tilgan omillar nuqtayi nazaridan ko'proq e'tibor qaratish: ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish; mahsulot sifatini yaxshilash va ichki bozorni ular bilan to'ldirish; aholini o'z ishlab chiqarishi hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolarini hal qilish; qishloq aholisining bandlik darajasini oshirish; qishloq oilalarining daromadlilikini oshirish; ortiqcha mahsulot bilan tashqi bozorga chiqishni ta'minlash va valyuta tushumlarini ta'minlash; yer, suv va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Bu chora tadbirlarning barchasi bizning nazarimizda qo'shimcha budjet mablag'larini talab qilmaydi. Davlat va ilm-fanning roli dehqon xo'jaliklarini, shuningdek ularni rivojlantirish bilan bog'liq yangi tuzilmalarni rivojlantirishning tashkiliy shart-sharoitlari va huquqiy asoslarini yaratishdan iborat. Aniqlangan muammolarni xal qilish orqali dehqon xo'jaliklari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini oshirish orqali mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini sezilarli darajada oshirish va dehqon xo'jaliklari o'lchamlarini optimallashtirish jarayonini tezlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Dehqon xo'jaliklari boshqa xo'jalik yuritish shakliga o'xshamaydigan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan, mahsulot yetishtirish, uni sotish, moddiy va mehnat resurslaridan, shuningdek olingan foydadan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan alohida xo'jalik yuritish subyektlaridir. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida dehqon xo'jaliklari boshqa yirik mulkchilik shakllariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, yuridik ro'yxatdan o'tishning soddaligi; bozorga kirish va undan chiqish ularning faoliyatida jiddiy muammolar tug'dirmaydi; xo'jalik yuritish va mahsulot ishlab chiqarishdagi harakatchanlik bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezda moslashish imkonini beradi; dehqon xo'jaliklarining xususiy mulkchilikka asoslanganligi resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshiradi; moliyaviy mustaqillik tufayli xo'jalikni rivojlantirish asosan o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Respublikamiz qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ko'p ukladli agrar iqtisodiyotni shakllantirish asosida bozor munosabatlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida raqobat muhitini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo'nalishida olib borilmoqda. Bu jarayonda dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dehqon xo'jaliklari o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va faoliyat tamoyillariga ko'ra bozor talablariga to'liq mos keladi. Bizning nazarimizda bu quyidagilarda o'z aksini topadi:

- respublikada dehqon xo'jaliklarining tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mustaqil bozor subyekti sifatida faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy va me'yoriy asos yaratish;

- dehqon xo'jaliklarining xususiy mulk asosida faoliyat yuritishi ularga barcha iqtisodiy va moliyaviy tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olgan holda bozorlarni tanlash imkoniyatini beradi;

- dehqon xo'jaliklari tomonidan bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish, mahsulotni sotish masalasini mustaqil hal qilish bozorda raqobat muhitini rivojlantirish va bu orqali butun iqtisodiyotni samarali yuritish uchun asos yaratadi;

- dehqon xo'jaliklari tomonidan majburiy to'lovlar (soliqlar) to'langanidan keyin ishlab chiqarish natijalarini mustaqil tasarruf etish ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozor mexanizmini joriy etishga kuchli qiziqish .

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli sifatida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi muhim omil hisoblanadi [10,12].

Bu borada O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishga agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Buning natijasida qishloq joylarda xo'jalik yuritishning boshqa shakllari qatorida dehqon xo'jaliklarining o'rnini yildan yilga ortib bormoqda.

Dehqon xo'jaliklarini ko'p ukladli iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida shakllantirishning obyektiv zaruriyati ham iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan asoslanadi:

Iqtisodiy omillar - bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish

Ijtimoiy omillar - mamlakat aholisining 50% dan ortig'i agrar sohada yashashi, ish bilan band bo'lganlarning 40% aynan shu tarmoqda faoliyat yuritishi hisobga olinsa, dehqon xo'jaliklarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash ishsizlar sonini qisqartirish imkonini beradi. Ya'ni, bunday xo'jaliklarni tashkil etish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkoniyati paydo bo'ladi[2,9].

Respublikamizda agrar islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Islohotlarni amalga oshirish davrida dehqon xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, dehqonlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida zarur tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratilgan [10].

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining bozor tamoyillariga mos tashkiliy tuzilmasini

joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining mustaqilligini kengaytirish hamda ularning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlari to'g'risida" 602-1-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Yer resurslari davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar hokimliklari oldiga dehqon xo'jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyatini tashkil etish bo'yicha alohida vazifalar qo'yildi [8,12,13].

Shu bilan bir qatorda, dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish va ularda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Dehqon xo'jaliklarida asosiy muammolarning tub mohiyati, birinchi navbatda, dehqon xo'jaliklari a'zolarining sof agrotexnik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar: eng qulay ekish muddatlari, bir sotix yerga urug' sarfi, qishki ekinlarni ekish muddatlari, ikkilamchi ekinlarni ekish texnologiyasi, o'simlik kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash va ulardan foydalanish usullari, o'simliklar hosildorligini oshirishga yordam beradigan mikroelementlar va fiziologik faol moddalar to'g'risida har doim ham tasavvurga ega emasligidadir [3,8]. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bizning nazarimizda ushbu ishlarni amalga oshirish uchun chetdan katta mablag' jalb qilish talab etilmaydi. Mavjud professional mutaxassislarni jalb qilgan holda tuman darajasida maslahat markazlari tashkil etish, pullik xizmatlar ko'rsatish mumkin.

Qishloq joylarda mineral o'g'itlar bilan erkin savdo qiluvchi do'konlar mavjud emas. Bunday savdo shoxobchalari soni ba'zi tumanlarda 1-2 tani tashkil etadi, ba'zi tumanlarda esa umuman tashkil etilmagan. Shuning uchun dehqon xo'jaliklarida agrokimyoviy xizmatlarni rivojlantirish uchun bizning nazarimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:


- moddiy-texnika ta'minoti tizimini yanada erkinlashtirish maqsadida ushbu tarmoqda xususiy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish;
- tijorat banklariga dehqon xo'jaliklariga urug'lik, mineral o'g'it va boshqa resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun kreditlar berishga ruxsat berish;
- tashish, ularga servis xizmati ko'rsatish, tashish va o'g'it solishda foydalaniladigan mablag'lar miqdorini ko'paytirish, shuningdek, dehqonlarga amaliy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida dehqon xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirish maqsadida birinchi navbatda quyidagi vazifalarni bajarish va muammolarni hal etish lozim deb xisoblaymiz:

- ekin maydonlarining ekologik holatini saqlash va hosildorligini oshirish uchun almashlab ekish tizimini joriy etish;
- bir yil davomida yerdan takroriy hosil olish imkoniyatlarini o'rganish;

- shaharlar va bozorlar yaqinida issiqxona xo'jaliklari maydonini kengaytirish; dehqon xo'jaliklarini sifatli urug'lik, mineral o'g'itlar hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish vositalari bilan ta'minlash;
- chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon xo'jaliklariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish tizimini joriy etish, kreditlash tizimini soddalashtirish va kengaytirish;
- dehqon xo'jaliklarini zotdor chorva mollari bilan ta'minlash ko'lamini kengaytirish va hajmini oshirish;
- har bir qishloq fuqarolar yig'inida veterinariya xizmati ko'rsatish punktlarini tashkil etishni jadallashtirish;
- yirik qishloq fuqarolar yig'inlari qoshida dehqon xo'jaliklari va barcha qishloq tadbirkorlariga axborot-maslahat xizmatlari ko'rsatish markazlarini tashkil etish;
- dehqon xo'jaliklariga turli xil servis xizmatlarini ko'rsatish tizimini joriy etish va boshqalar.

Nafaqat oila ehtiyoji uchun, balki bozor uchun ham mahsulot ishlab chiqarishni doimiy ravishda nazarda tutish qishloq oilalarining daromadini ko'paytirishga va farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillarga amal qilinsa, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish, boshqarish va mahsulot ishlab chiqarishdagi kamchilik va qiyinchiliklar bartaraf etiladi, iqtisodiy samaradorlik oshadi. Chunki bugungi kun talabi ishlab chiqarish subyektlariga erkinlik va imkoniyatlar berishdan iborat. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, dehqon xo'jaliklari harakati samaradorligini oshirish va uning yanada ravnaq topishiga olib keladigan omillar quyidagi sxemaga jamlangan (2 - rasm).



1-rasm. Dehqon xo'jaliklarini barqaror faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibi

1-rasmda keltirilgan omillarning nima uchun tanlanganligini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Yer resurslari bilan ta'minlanganlik omili. Bizning nazarimizda dehqon xo'jaligiga biriktiriladigan yer maydoni o'lchamlarining kichikligi tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va uning samaradorligini to'liq oshirish imkonini bermaydi.

2. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganlik omili. Qishloq xo'jaligi texnikalarining yetishmasligi dehqon xo'jaliklarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin

3. Resurslarning mavjudligi va foydalanish imkoniyati omili. Dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishda sug'orish suvi, sifatli urug'lik, mineral o'g'itlar hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash vositalari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

4. Infratuzilmani rivojlanganligi omili. Qishloq joylarda zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini yaratish, dehqon xo'jaliklari ehtiyojidan kelib chiqqan holda zarur xizmatlar ko'rsatish ko'zda tutiladi.

5. Kooperativlar tashkil etilganligi omili. Ozuqa ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kooperativlarni tashkil etish, masalan, chorvachilikni ozuqa bilan ta'minlashni yaxshilashga yordam beradi.

6. Bozorini tanlash uchun shart-sharoitlar yaratilganligi omili. Bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish imkoniyati raqobat muhitini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" .T.: Adolat,2021

2. Абдуллаев А.М., Some of the conceptual issues of state support of small business in Uzbekistan

3. Говорунова Т. В., Шарикова И. В., Шариков А. В., Фефелова Н. П. Налогообложение крестьянских (фермерских) хозяйств: отечественный и зарубежный опыт // Аграрный научный журнал. 2015. № 1. С. 66–69.

4. Jo'raev A.M. Agrar sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish muammolari va yechimlari. –T.: Mehnat, 2019.-236 b

5. О.Т. Сатторкулов, К.У. Рахматов. Деҳқон ва фермер хўжаликлари иқтисодиёти. Гулистон. 2014. 148 б.

6. Собина В. Н. Региональные особенности моделирования экономики крестьянских (фермерских) хозяйств : диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ижевск, 2003. 198 с.

7. Raximov A.N. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini yekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati): iqt. fan. fal. dok. diss.– T.: TDIU, 2020.–165 b.

8. К.И. Кундузова // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2013.- №6.- С.129-131
9. К.И. Курпаяниди // Молодой ученый. — 2015. — №6. — С. 357- 360. — URL <https://moluch.ru/archive/86/16121/>.
10. Курпаяниди К.И. Совершенствования системы налогообложения субъектов предпринимательства в условиях институциональной трансформации
11. Kurpayanidi K.I. The typology of factors of increasing the innovative activity of enterprise entrepreneurs in the industry [Text] / ISJ Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 66.].
12. Ш. Жумакулов, И. Хамракулов // O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-2008. .№6., 28 с
13. Щербакова Э. В. Формирование и эффективное развитие крестьянских (фермерских) хозяйств : диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, 2002. 198 с.